

Usmonova Feruza Luqmon qizi
Tadqiqotchi

“OILA” ASARINING G‘OYAVIY-BADIIY VA TARBIYAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimiy sharq urf-odatlarini, ma’naviy-ma’rifiy hayoti, turmush tarzi kabi jihatlarni o‘zida aks ettirgan Abdurauf Fitratning “Oila” asarida ilgari surilgan g‘oyalarning milliy ma’naviyatimizni yuksaltirish, o‘zligimizni yanada teranroq anglash kabi zaruriy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishdagi ahamiyati haqida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, jamiyat hayotida oilaviy qadriyatlarining ta’siri masalasiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Fitrat, ma’naviy-ma’rifiy hayot, milliy qadriyat, oila asosi, millat inqirozi, jamiyat hayoti, ta’lim-tarbiya.

Аннотация. В данной статье были высказаны идеи, выдвинутые в работе Абдурауфа Фитрата «Оила», в которой отражены такие аспекты, как древние восточные обычаи, духовно-просветительская жизнь, образ жизни и т.д., сделаны соображения о ее значении в реализации необходимых целей. Также кратко было затронуто влияние семейных ценностей на жизнь общества.

Ключевые слова: Фитрат, духовно-просветительская жизнь, национальная ценность, семейный фундамент, национальный кризис, общественная жизнь, образование.

Abstract. In this article, the ideas put forward in Abdurauf Fitrat's work “Oila”, which reflects aspects such as ancient eastern customs, spiritual and educational life, lifestyle, etc. considerations were made about its importance in the realization of the necessary goals. Also, the influence of family values in the life of the society was briefly touched upon.

Key words: Fitrat, spiritual and educational life, national value, family foundation, national crisis, community life, education.

Bugungi kunda yurtimizda boy adabiy merosimizni tiklash, uni xalqimizga to‘g‘ri anglatish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Sharq xalqlari qadim zamonlardan buyon jahon madaniyatining ulkan hazinasiga o‘zining mumtoz asarlari, xalqimiz ruhiyatini aks ettiruvchi boy ilmiy merosi bilan hissa qo‘shgan ko‘pgina buyuk ijodkorlarni yetishtirib bergan. Ularning merosini keng xalq ommasiga yetkazib berish madaniyatimizning to‘kisligi uchun bugungi globallashuv davri nuqtayi nazaridan nihoyatda zarurdir. Sharq qo‘lyozmalarida saqlanayotgan ulkan adabiy merosni o‘rganish va ommalashtirish, ulardagi tub mazmun-mohiyatni yosh avlodga yetkazish, mazkur sohada yurtimiz va xorijiy davlatlarda mavjud yetakchi universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan say’i-harakatlar zamirida milliy ma’naviyatimizni yuksaltirish, o‘zligimizni yanada teranroq anglash kabi zaruriy maqsadlar ko‘zda tutilgani hech birimizga sir emas. Shu nuqtayi nazardan qadimiy sharq urf-odatlarini, ma’naviy-ma’rifiy hayoti, turmush tarzi kabi jihatlarni o‘zida namoyon qiluvchi Abdurauf Fitratning “Rahbari najot” va “Oila” asarlari ham bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

Abdurauf Fitratning “Oila” asari haqida Sadridin Ayniy “oyila hayotini isloh qilish masalalariga bag‘ishlangan bu asar sifatida (asar nomi manbada qanday ko‘rsatilgan bo‘lsa o‘zgartirishsiz berildi) “Oyila”ni tilga olib, Mirzo Abdulvohid harji bilan nashr etilganini yozadi. “Oyila yohud vazifai xonadori” deb nomlangan bu asar 1332 (1914)-yilda yozilgan, biroz keyinroq Bokuda chop etilgan. Asar muqaddimasidan ma’lum bo‘lishicha, Fitrat “Oyila”ni chig‘atoy turkchasida yozmoqchi bo‘lgan, biroq Mirzo Abdulvohid munzim fikrini inobatga olib, fors tilida yaratgan. Sadridin Ayniyning 1921-yilda Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti”, “Sayha”, “Rahbari najot”, “Oyila”, “Musulmoni doru-rohat” asarlari va ularning maxfiy ravishda Buxoroga keltirilgani haqidagi qaydlari NKVD tomonidan

Fitratni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha ochilgan 4269-raqamli "ish"ga ilova tarzida uning delosiga tikib qo'yilgan¹.

1998-yil Sh.Vohidov Abdurauf Fitratning eski o'zbek yozuvida fors tilida yozilgan "Oila"² asarini birinchi marta o'zbek tiliga kirill alifbosida tarjima qildi va nashr ettirdi. Asarning kirish so'zida "kitob Buxoroda 1914-yili yozilib, 1915-yilda chop etilgan"³ degan qaydni uchramiz. Bu yerda H.Boltaboyev (Istanbul) hamda D.Alimova (Buxoro) fikrlari bir-biriga zid. Bizningcha, H.Boltaboyevning taxmini to'g'riroq, sababi ma'lumotning manbasi ko'rsatilmogda. D.Alimova esa hech qanday manba keltirmaganligi uchun uning fikriga qo'shilish biroz noto'g'ri degan xulosaga kelishimizga turtki bo'lmoqda.

Islomshunoslik fani va dunyoviy ilmlardan boxabar bo'lgan Fitrat asarda huquqshunos, sotsiolog, pedagog va tabib sifatida namoyon bo'lgan.

2000-yilda ushbu asarning ikkinchi nashri (2 ta nashrning kirish so'zida farq bor) chop etildi. Jadidlarning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq. Bu g'oya Fitratning asarida o'z ifodasini topgan: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi".

Islom dini har sohada insonning kamol topishi uchun imkoniyat yaratgan, uning kamoloti nimaiki naf keltirsa, o'sha asosda tuzuklar belgilangan. Bu haqida so'z yuritilmoqchi bo'lgan asar muallifi shunday yozadi: "Haqiqatan, islom dini bisyor barkamol din bo'lib, tabiat qonunlariga muvofiqdir. Foydani zarardan adolat bilan kam-ko'stsiz ajratadi. Odamlarga nimaiki foyda keltirsa, ijizat berib, zarar keltiradigan narsalardan man qiladi"⁴. Xuddi shu kabi oila muqaddasligi va oilali bo'lish mas'uliyati haqida Qur'oni karim oyatlari va Hadisi sharifdagi hikmatlarda bisyor aytilgan fikrlar mavjud. Musulmonchilikning dastlabki talablaridan biri ham o'z oilasi va farzandlariga nisbatan mehr-muhabbatdir. Zero, inson ana shu muhabbatdan tug'ilgan, oiladagi ilk onalik mehri va otalik muhabbati bilan yo'rgaklangan. Go'dakning insoniy sifatlari kamol topishida ham mana shu mehr- muhabbat tarbiya "muassasasi" hisoblanadi.

Abdurauf Fitrat "Oyila yoki oyilani boshqarish tartiblari" asarida anglatishicha, "oyilaning shakllanishi, ya'ni "ahli bayt" jamoasi, boshqacha qilib aytganda, xonadorlik (oilalar boshqarish)ga asos solish bani Odam madaniyatining asosidir". Shuning uchun ham "oyila qayerda kunlik intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi... xalqning davlatmand va baxtli bo'lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jamoasini kiyib, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq"⁵.

"Oila" asari haqida keng to'xtalgan ilmiy tadqiqot sifatida biz Sh.Abdujalilovanning "Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari" nomli pedagogika fanlari nomzodi ilmiy unvonini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini e'tirof etishimiz mumkin. Fitrat oila qurish (nikoh) masalasini ilmiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlardan izohlab, aniq tushuntirib beradi. Fitrat "oilalar qurishdan maqsad farzand ko'rish", degan tezisni ilgari suradi, bu g'oyani qayta-qayta uqtiradi. Uningcha, farzand ko'rish maqsadida oilalar qurilmas ekan, bunday oilalar soxta va asosi mo'rt bo'ladi⁶.

¹ Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. – Т. 2007. 33-бет.

² Абдурауф Фитрат. "Ойла ёки оила бошқариш тартиблари". – Т., "Маънавият". 1998. 112 бет.

³ Абдурауф Фитрат. "Ойла ёки оила бошқариш тартиблари". Иккинчи нашр. – Т., "Маънавият" .., 2000. 4-бет.

⁴ Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. – Т. 2007. 143-бет.

⁵ Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. – Т. 2007. 143-бет.

⁶ Abdujalilova Shoir. "Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari" pedagogika fanlari nomzodi ilmiy unvonini olish uchun dissertatsiya. – Т., 2005. – В. 16.

Fitratshunos olim H.Boltaboyev Abdurauf Fitratning “Tanlangan asarlar”ining IV jildiga “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarini kiritgan. Bu asarning uchinchi marta chop etilishi bo‘ladi. Asar kirill alifbosida 112 sahifadan iborat.

Ushbu asar H.Boltaboyev mas’ul muharrirligi va so‘z boshisi bilan 2013 va 2019-yillarda Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan ham qayta nashr etildi. Asarning bu nashri o‘zbek tili lotin alifbosida nashr etilgan. Asar hajmi 145 sahifani tashkil etadi.

Fitrat asarning so‘z boshisida: “Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi. Hozirgi Farang (Ovro‘pa) olimlari ham o‘z xalqlari intizomi va oilalarining rohati uchun harakat qilib yuzlab kitoblarni yozib nashr qilmoqdalar. Imonim komilki, oila saodati va baxti uchun qabul qilingan eng yaxshi qonun islomiy qonunlar bo‘ladi”, - deb yozadi. Oilada millatning qadri va sha‘nini belgilovchi harakatlar, avvalo, er va xotinning iffat va diyonati bilan bog‘liq ekanini hayotiy misollar bilan anglatadi.

XX asrning boshlaridayoq Yevropaning olmon, fransuz va ingliz millatlari o‘zlarida jinsiy masalaning g‘oyat erkinlashib ketayotganidan tashvishlana boshladilar. Bu esa oila tartibini izdan chiqarib, oxir-oqibatda jamiyatda oilaning buzilishiga va bu bilan millatning inqirozga yuz tutishiga olib kelardi. Shu sababli yevropalik olimlar bu masalaning oldini olish maqsadida oila muammolariga doir keng ko‘lamli tadqiqotlarni boshlab yubordilar. Ma‘lumotlarga ko‘ra, XX asrning 75-yiligaacha Yevropada oila muammolariga oid uch mingga yaqin ilmiy tadqiqot yaratilgan. XX asrning 60-yillarida AQShda “erkin muhabbat” shiori ostida jinsiy munosabatlarda erkinlik munosabati boshlanganligi ma‘lum. Oradan yigirma yil o‘tib bu harakatning asoschilaridan biri bu fikridan qaytdi va u: “Erkin muhabbat oila tizimini buzadi, tartibsiz oila tizimiga ega mamlakat o‘limga mahkumdir”⁷, - deya e‘lon qiladi.

Shu ma‘noda Fitrat va uning ilg‘or zamondoshlari oilaviy munosabatlarda tartiblarni to‘liq rejaga solgandilar. Chunki o‘zbek jamiyatida oila munosabatlari asrlar davomida qat‘iy qadriyatlar va tartiblarga asosan shakllanib kelgan. U nikoh qurishning islomda farzligini Qur‘on oyatlari va payg‘ambarimiz hadislari bilan asoslab ko‘rsatadi. Fitrat keltirgan hadislardan birida shunday deyiladi: “Sizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidir”. Agar e‘tibor berilsa, bu hadis zamirida odamiylikni saqlashdek g‘oya yotadi. Olamning eng buyuk oqillaridan hazrati payg‘ambar uylanishni sunnat deb bilib: “Uylaninglar va o‘z nufuzlaringizni ziyoda qilinglarkim, qiyomat kuni men sizlarning ko‘pligingiz bilan faxrlanaman”⁸, - deganlar va yana Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytadilar: “Ayol kishi to‘rt xislati uchun nikohga olinadi: moli uchun; nasabi (ota-bobolarining obro‘si va maqtovg‘a loyiq xislatlari) uchun; jamoli uchun; dini uchun. Sen dindorini tanlagin, qo‘ling qurigur”⁹ (Buxoriy va Muslim rivoyati).

Fitratning fikricha, tarbiyada oilaning vazifasi insonning “nafsini isloh qilib”, uni asta-sekin shaxs sifatida voyaga yetkazishdan iborat. Bunda u Fransiya olimlarining oila va unda olib borilgan tadqiqotlarini jiddiy o‘rgangan. Mutaffakir ta‘kidlaydiki, oilada avlod tarbiyasi maxsus amalga oshirilishi kerak. Bu oilaning muqaddas vazifasi bo‘lib, ota-ona o‘z farzandini “sog‘lom tanli, sog‘lom fikrli va sog‘lom axloqli qilib” voyaga yetkazishi shart. Olimning fikricha, uch qismli tarbiya amalga oshiriladi: 1) badan tarbiyasi; 2) aqliy tarbiya; 3) axloqiy tarbiya.

Agar ota-bobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar solsak, ular nasl-nasab, yetti pushtining tozaligi va avlodning sog‘ligiga juda katta e‘tibor berganini ko‘ramiz. Abdurauf Fitratning ijodiy merosi keng qamrovli tadqiqotlar obyekti bo‘lib, bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili hali o‘zbek adabiyotshunosligida Fitrat ijodi va fitratshunoslik borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator dolzarb vazifalar borligini ko‘rsatadi. Fitratning “Najot yo‘li” asarida axloqiy me‘zonlar yaqqol ko‘zga tashlansa, mazkur asarning bevosita davomi sanaladigan “Oila va oila

⁷ Abdujalilova Sh. “Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari” pedagogika fanlari nomzodi ilmiy unvonini olish uchun dissertatsiya. – T., 2005. – B. 67.

⁸ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. ИВ жилд. – Т., “Маънавият”. 2006. 220-бет.

⁹ <https://ahlisunna.uz/> Nikoh haqida qirq hadis.

boshqaruv tartiblari” asarida esa ayrim masalalar yanada kengroq yoritilgan. Sharq-u G‘arb xalqlarini o‘ziga rom etgan adabiyotimiz namunalari bugungi davr ma’naviy muhitini belgilashda o‘ziga xos vosita bo‘lib, ulardagi milliy g‘oyalarni yoshlarimizga singdirish millatimiz va jamiyatimiz ravnaqi uchun muhim omil sanaladi. Bevosita qadimiy Sharq urf-odatlarini, ma’naviy-ma’rifiy hayoti, turmush tarzi kabi jihatlarni o‘zida namoyon qiluvchi “Oila” asari ham bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdusalilova Sh. Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari. Ped. fan. nom. ... diss. – T., 2005. – B. 16.
2. Ahlisunna.uz. Nikoh haqida qirq hadis.
3. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 1998. 112-б.
4. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. Иккинчи нашр. – Т.: Маънавият, 2000. 4-б.
5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: Маънавият, 2006. 220-б.
6. Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. – Т., 2007.
7. Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. – Т., 2007. 143-б.